

ZAMONAVIY GLOBAL IQTISODIYOTDA JAHON VALYUTA TIZIMINING RIVOJLANISHI

Allayarov Alisher O‘tkirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Zamonaviy global iqtisodiyotda jahon valyuta tizimining rivojlanishi masalalariga qaratilgan tadqiqotlar bayoni keltirilgan. Unda global iqtisodiyotda jahon valyuta tizimining rivojlanish siyosati va jahon valyuta tizimini takomillashtirish masalalarini tahlil etish va xalqaro darajadagi raqobatbardosh iqtisodiyotlar va ularning valyuta tizimi uchun qulay muhit yaratishning ahamiyati, afzalligi va amalga oshirish bosqichlari, shuningdek xalqaro valyuta tizimini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan muommolar bilan bog‘liq munosabatlarni vujudga kelishi va unga qarshi chora-tadbirlarning zarurligiga oid me‘yoriy hujjatlarni talabga muvofiqligi bo‘yicha ilmiy va amaliy taklif hamda tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Xalqaro valyuta tizimi, Dollor, Euro, Milliy valyuta siyosati, Kriptavalyutalar, SDR.

DEVELOPMENT OF THE WORLD CURRENCY SYSTEM IN THE MODERN GLOBAL ECONOMY

ABSTRACT

This article provides a description of the studies focused on the development of the world currency system in the modern global economy. It is related to the analysis of the development policy of the world currency system in the global economy and the issues of improvement of the world currency system and the importance, advantages and stages of implementation of creating a favorable environment for competitive economies and their currency system at the international level, as well as the problems that arise in the process of developing the international currency system. Scientific and practical proposals and recommendations were made regarding the compliance of regulatory documents with the requirements of the establishment of relations and the necessity of measures against it.

Keywords: International monetary system, Dollar, Euro, National currency policy, Cryptocurrencies, SDR.

KIRISH

Xalqaro valyuta munosabatlari valyutalarning xalqaro miqyosdagi harakati natijasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlardir.

Xalqaro valyuta munosabatlarining sub'ektlari bo'lib, davlat, kompaniyalar, banklar, jismoniy shaxslar va xalqaro moliya institutlari hisoblanadi.

Ammo har qanday valyuta xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda to'lov vositasi vazifasini bajara olmaydi. Ushbu vazifani, asosan, taraqqiy etgan mamlakatlarning milliy valyutalari va xalqaro hisob birligi bo'lgan SDR (mablag'lar jalb qilishning maxsus huquqi) bajaradi.

Xalqaro valyuta munosabatlarining yuzaga kelishi dastlab xalqaro savdoning yuzaga kelishi bilan izohlanadi.

Xalqaro mehnat taqsimotining yuzaga kelishi davlatlar o'rtasida tashqi savdo munosabatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. O'z navbatida, tashqi savdoni amalga oshirish turli mamlakatlarning valyutalarini bir-biriga ayirboshlash zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashuv jarayonlarining chuqurlashishi natijasida tadbirkorlik kapitali (to'g'ri va portfelli xorijiy investitsiyalar) va ssuda kapitalining (xalqaro kreditlar) xalqaro miqyosdagi oqimi kuchaydi. Bu esa, xalqaro valyuta munosabatlarini rivojlantirishga kuchli turtki berdi.

Xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro iqtisodiy munosabatlardan tashqari, davlatlararo siyosiy, madaniy va boshqa aloqalarda ham yuzaga keladi. Masalan, xorijiy davlatlarda diplomatik vakolatxonalar ochish va saqlash, o'zga davlatlar hududida harbiy qismlar saqlash, madaniy tadbirlarni amalga oshirishda valyuta munosabatlari paydo bo'ladi.

Banklarning paydo bo'lishi va ular faoliyatining rivojlanishi xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Banklar, ayniqsa, tijorat banklari xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish markazlariga aylanishdi. Transmilliy banklarning paydo bo'lishi bilan xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanishi yangi bosqichga chiqdi. Transmilliy banklarning dunyo bo'ylab filiallar tarmog'ining kengligi xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tezligi va hajmini oshirish imkonini berdi. Albatta, mazkur jarayonda xalqaro elektron to'lov tizimlari muhim o'rin tutadi. Hozirgi davrda, davlatlararo xalqaro hisob-kitoblarning asosiy qismi SVIFT (Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunications) tizimi orqali o'tadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon valyuta tizimi davlatlararo valyuta munosabatlarini tashkil qilish shakli bo'lib, xalqaro shartnomalar asosida yuzaga keladi. Hozirga qadar jahon valyuta tizimining shakllanishi va rivojlanishi to'rt bosqichni bosib o'tdi.

Birinchi jahon valyuta tizimi 1870 yilda Parijda bo‘lib o‘tgan davlatlararo kelishuv natijasida yuzaga keldi. Bunda oltin standarti joriy etildi va oltin yagona xalqaro to‘lov vositasi sifatida e‘tirof etildi.

Ammo 1914-yilda Birinchi jahon urushining boshlanishi oltin standartdan foydalanish amaliyotiga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. 1914-1915 yillarda dastlab Buyuk Britaniya, keyin esa, qolgan evropa davlatlari oltinni eksport qilishni chekladilar. AQSh urushga kech qo‘shilganligi uchun mazkur cheklov 1917 yilda joriy etildi.

Buyuk Britaniya funt sterlingdagi xalqaro to‘lovlarni to‘xtatdi. Import qilingan oltinlarning barchasi Angliya Markaziy bankining zaxirasiga olinib boshladi.

1922 yilda Italiyaning Genuya shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferentsiyada Ikkinchi jahon valyuta tizimi yuzaga keldi. Uning muhim natijasi bo‘lib, oltin-deviz standartining joriy etilganligi hisoblanadi. Ya‘ni, oltin bilan birga, 30 ta mamlakatning milliy valyutasiga xalqaro to‘lov vositasi maqomi berildi.

Ammo Ikkinchi jahon valyuta tizimi haqiqatda Buyuk Britaniyaning funt sterlingi standartiga aylandi. Ya‘ni, funt sterling asosiy rezerv valyutaga aylandi. Bu esa, quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

1. Birinchi jahon urushi paytida funt sterling boshqa evropa valyutalariga nisbatan kam darajada qadrsizlandi (20%). Qolgan evropa valyutalari, xususan, Frantsiya franki 80 foizgacha qadrsizlandi. Holbuki, Frantsiya franki etakchi valyutaga aylanishga da‘vogarlik qilayotgan edi.

2. XX asrning 20-yillarida Angliya ochiq iqtisodiyotga ega edi. Boshqa davlatlar Angliya bilan savdo-sotiq qilib funt sterling ishlab olish imkoniyatiga ega edi. Bu vaqtda AQSh yopiq iqtisodiyotga ega edi.

3. Angliya banklari bu davrda keng tarqalgan xorijiy filiallarga ega edi. AQSh banklari esa, xorijiy filiallarga deyarli ega emas edi.

4. XX asrning 20-yillarida Angliya banklari tomonidan xalqaro savdoning 60 foizgacha qismi moliyalashtirilar edi.

Yuqorida qayd etilgan sabablar Buyuk Britaniya funt sterlingini dunyo miqyosida xalqaro zaxiralar hajmidagi salmog‘ining oshishiga olib keldi. 1913 yilda dunyo bo‘yicha xalqaro valyuta zaxiralarining 47 foizi funt sterlingga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 1928 yilda ushbu ko‘rsatkich 77 foizni tashkil etdi¹¹⁶.

Ammo Ikkinchi jahon valyuta tizimi ham bir qator sabablarga ko‘ra, Inqirozga uchradi. Ushbu sabablardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Buyuk Britaniya hukumati tomonidan Birinchi jahon urushidan keyin deflyatsion siyosatni olib borilganligi.

¹¹⁶ Officer L. Gold Standart, 2001 маълумотлари.

Deflyatsion siyosat funt sterlingning oltinga nisbatan paritetini urushdan oldingi darajaga etkazish maqsadida amalga oshirildi. Ammo ushbu siyosat kutilgan natijani bermadi va aksincha, valyutaviy inqirozga olib keldi. Buning sababi shundaki, Buyuk Britaniya funt sterlingning qat'iy belgilangan kursini saqlab turdi. Bu vaqtda, ularning tashqi iqtisodiy hamkorlari bo'lgan mamlakatlar devalvatsiyani amalga oshirdilar. Natijada Buyuk Britaniyaning tashqi savdodagi raqobatbardoshligi keskin pasaydi va to'lov balansining defitsiti miqdori oshdi. Frantsiya, Germaniya va Belgiyaning milliy valyutalari Birinchi jahon urushida yuqori sur'atda devalvatsiyaga uchraganligi sababli ularning kursi past darajada qoldi. Buning natijasida mazkur mamlakatlarda to'lov balansida katta ijobiy saldo yuzaga keldi va oltinni katta miqdorda oqib kelishi yuz berdi.

2. Birinchi jahon urushidan keyin AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya va Germaniya Markaziy banklari tomonidan sterilizatsiyalashgan valyuta intervensiyasini amalga oshirilganligi.

Buning natijasida Markaziy banklarning foizli daromad keltiruvchi ichki aktivlarining yillik o'zgarishi yuz berdi va u oltinning taklifini keskin qisqartirdi.

3. Markaziy banklar o'rtasida xalqaro rezervlarning notekis taqsimlanishining yuzaga kelganligi.

Oltin-deviz standartini birinchi bo'lib Kanada 1929 yilda tark etdi.

1944 yilda AQShning Bretton-Vuds shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferentsiya natijasiga ko'ra Uchinchi jahon valyuta tizimi tashkil topdi.

Uning muhim natijalari quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro miqyosda qat'iy belgilangan kurs rejimi joriy qilindi.

Milliy valyutalarning kursi ularning paritetidan 1 foizgacha tebranishi mumkin edi. Buning natijasida davlatlar o'rtasidagi tashqi savdo munosabatlarida yuzaga keladigan valyuta riski muammosiga barham berildi.

2. AQSh dollari va Buyuk Britaniyaning funt sterlingiga xalqaro rezerv valyuta maqomi berildi.

3. Yangi rezerv aktiv – qarz olishning maxsus huquqi (SDR) yaratildi.

SDR sun'iy valyuta bo'lib, XVFga a'zo mamlakatlar o'rtasida, ularning Fondagi kvotasiga qarab taqsimlanadi va xorijiy valyutalar sotib olishda, kreditlar berishda va davlatlar o'rtasidagi to'lovlarni amalga oshirishda qo'llaniladi.

Uchinchi jahon valyuta tizimi faoliyat ko'rsatishi bilanoq ikki dolzarb muammoga duchor bo'ldi: bilateralizm va dollar etishmasligi muammosi.

Bilateralizm (bilateralism) deganda tashqi savdoni ikki tomonlama xalqaro shartnoma asosida amalga oshirish tushuniladi.

Ikkinchi jahon urushi unda ishtirok etgan barcha davlatlarning (AQShdan tashqari) iqtisodiyotini xonavayron qildi. Buning natijasida mazkur davlatlar

valyutaviy nazoratni saqlab turishga majbur bo'ldilar. Shu sababli, har bir mamlakat o'zining tashqi savdo hamkori bo'lgan mamlakat bilan valyutaviy nazorat shakllarini hisobga olgan holda eksport-import shartlarini kelishib olar edi. Bu esa, o'z navbatida, tashqi savdoni rivojlantirishga to'sqinlik qilar edi.

Bu davrda, ya'ni 1946-1950 yillarda AQSh dollari yagona xalqaro to'lov vositasi vazifasini bajaradigan valyuta bo'lib qolgan edi. Ammo **“dollar ocharchiligi”** (dollar shortage) deb nomlanuvchi muammo yuzaga keldi. Ushbu muammoning mohiyati shundaki, Ikkinchi jahon urushining so'nggiga kelib (1945 y.) G'arbiy Evropa va Yaponiyaning oltin zaxiralari tamom bo'ldi. Chunki, Ittifoqchilarning harbiy xarajatlari oltin hisobidan moliyalashtirilar edi. Ularning oltinlari AQShga oqib ketdi. Bu davrda Evropani zarur import tovarlar bilan faqat AQSh ta'minlay olar edi. Evropa davlatlarida esa, AQShdan qilinadigan importni to'lash uchun zarur bo'lgan dollar etishmas edi.

1955 yilga kelib yuqorida qayd etilgan har ikkala muammoni hal qilishga muvaffaq bo'lindi. G'arbiy Evropa davlatlari valyutalarining 1955 yilga kelib konvertirlanadigan valyutalarga aylanishi, ularning to'lov balansini joriy operatsiyalar bo'limida ijobiy saldoning ta'minlanishi, AQShdan katta miqdorda moliyaviy yordamning olinishi bilateralizm va dollar etishmasligi muammosini hal qilish imkonini berdi. AQSh «Marshall rejasi»ga asosan Evropaga 13 mlrd. dollar miqdorida moliyaviy yordam va xalqaro kreditlar berdi. Ushbu mablag'larni berish evaziga AQSh Evropa davlatlariga uskunalarni AQShdan sotib olish va mahalliy xom-ashyo bazalariga AQShni kiritish shartini qo'yidilar.

Ammo, haqiqatda Uchinchi jahon valyuta tizimi AQSh dollari standartining gegemonligiga aylandi. Buning quyidagi sabablari mavjud edi:

1. AQShning Ikkinchi jahon urushidan keyin jahon tovar bozorlarida raqobatchilari yo'q edi.

Germaniya, Italiya, Yaponiya urushda mag'lubiyatga uchradi, Evropaning qolgan davlatlari ham urush natijasida xonavayron bo'ldi. Bu esa, AQShning tovarlar eksporti hajmini oshirish imkoniyatini keskin oshirdi.

2. AQSh Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdan to XX asrning 50-yillariga qadar dollarga bo'lgan ishonchni mustahkamlash maqsadida uning devalvatsiya bo'lishiga yo'l qo'yimaslik siyosatini olib bordi.

3. AQSh dollarini cheklanmagan miqdorda oltinga qat'iy belgilangan baho bo'yicha almashtirish joriy qilingan edi. Bunda 1 untsiya oltinning bahosi 35 dollar qilib belgilangan edi.

XX asrning 60-yillariga kelib, AQShda pullar taklifining keskin oshishi natijasida inflyatsiyaning kuchayishi yuz berdi. O'z navbatida, pullar taklifining keskin oshishi ishsizlikni qisqartirishga qaratilgan siyosatning olib borilishi va davlat byudjeti

defitsitini AQSh FZT kreditlari hisobidan moliyalashtirilishi oqibati edi. Ayniqsa, Vetnamdagi urush AQSh davlat byudjeti defitsitining keskin oshishiga olib keldi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar qat'iy belgilangan kurslar tizimining barham topishiga olib keldi.

Bundan tashqari, XX asrning 60-yillariga kelib, Evropa davlatlari katta eksport salohiyatiga ega bo'ldi va buning natijasida ularda katta miqdorda AQSh dollari to'plana boshladi. Bunday sharoitda dollarni oltinga almashtirib berishni davom etishi AQShning oltin zaxiralarini keskin kamayishiga olib kelar edi.

Chikago universitetining professori M.Fridmen 1971 yilda AQSh Prezidenti Richard Niksonga yozma ravishda murojaat qildi. Ushbu murojaatnomada oltinning qat'iy belgilangan bahosini bekor qilish va oltinni qat'iy belgilangan bahoda dollarga almashtirib berishni to'xtatishning zarurligi asoslab berilgan edi. M.Fridmenning xulosasiga ko'ra, oltinning qat'iy belgilangan bahosi AQShning tashqi savdo hamkorlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda va ushbu holatning davom etishi AQSh oltin zaxiralarining tugashiga olib keladi. M.Fridmenning ushbu xulosasi aniq raqamlar tahliliga asoslangan edi. Xususan, 1971 yilga kelib, AQSh oltin zaxirasi miqdori belgilangan chegaraviy darajaga (10 mlrd. dollar) yaqinlashib qolgan edi.

AQSh Prezidenti R.Nikson, Federal zaxira tizimining Prezidenti A.Byornsning qat'iy iltimoslariga qaramasdan, M.Fridmenning takliflarini qabul qildi. Buning natijasida, 1971 yil 15 avgustda oltin bozorida interventsia qilish to'xtatildi, baholar va ish haqining o'sishiga nisbatan 90 kunlik moratoriy e'lon qilindi va importga nisbatan 10 foizlik soliq joriy qilindi. Bu esa, Bretton-Vuds jahon valyuta tizimiga berilgan juda kuchli zarba edi.

MUHOKAMA

1976-1978-yillarda Yamaykada bo'lib o'tgan xalqaro konferentsiyaning natijalariga ko'ra, To'rtinchi jahon valyuta tizimi tashkil topdi.

Uning muhim natijalari quyidagilardan iborat:

1. Qat'iy belgilangan kurslar tizimi bekor qilindi va natijada barcha valyutalarni erkin suzish rejimiga o'tkazish tavsiya qilindi.

AQSh dollarining oltinga almashtirib berish tartibining bekor qilinishi bilan qat'iy belgilangan kurslar tizimi barham topdi.

2. Germaniya markasi va Yaponiya ieniga xalqaro rezerv valyutalar maqomi berildi.

3. Oltinni demonetizatsiya qilish jarayoni rasman tugallandi. Ya'ni, oltindan xalqaro munosabatlarda to'lov vositasi sifatida foydalanish ta'qiqlandi.

4. SDRning xalqaro to'lov vositasi sifatidagi rolini oshirishning zarurligi asoslandi.

SDRning o'z qiymati bo'lmaganligi sababli, uning qiymati valyuta savati bo'yicha aniqlanadi.

1-jadval SDRning valyuta savati¹¹⁷ foizda

Davrlar	AQSh dollari	Evro	Iena	Funt sterling	Yuan
1999-2000	39,0	–	27,2	11,0	–
2001-2005	44,0	32,0	21,0	11,0	–
2006-2010	44,0	31,0	18,4	11,0	–
2011-2015	41,9	34,0	12,1	11,3	–
2016-2020	41,7	37,4	8,3	8,1	10,9

1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, SDRning valyuta savati har 5 yilda ko'rib chiqiladi va unda AQSh dollarining salmog'i sezilarli darajada yuqoridir. Bu esa, AQSh dollarining xalqaro hisob-kitoblardagi salmog'ining yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

E'tirof etish joizki, XVF 2016 yil noyabr oyida Xitoy yuaniga xalqaro rezerv valyuta maqomini berdi.

To'rtinchi jahon valyuta tizimining hozirgi, zamonaviy bosqichida AQSh dollari va evro etakchi rezerv valyutalar bo'lib turibdi. Ammo har ikkala rezerv valyutaning almashuv kurslarining nobarqarorligi xalqaro valyuta munosabatlarini amalga oshirishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Biroq, xalqaro rezerv valyutalar atalmish Buyuk Britaniya funt sterlingi va Shveysariya frankining nominal almashuv kursining barqarorligi kuzatilmog'ida. Buning ustiga, Kanada dollari va Avstraliya dollari ham rezerv valyuta bo'lishga da'vogar bo'lib turibdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak XVF a'zo mamlakatlar zaxirasining bir qismini XVFning markazlashgan boshqaruviga ishonib topshirish xalqaro hamjamiyatning inqirozni bartaraf etish va xalqaro valyuta-moliya tizimining barqarorligini saqlash imkoniyatlarini oshirish bilan birga, SDR rolini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Ayrim mamlakatlar tomonidan zahiralarni alohida boshqarish bilan solishtirganda, ishtirokni rag'batlantirish uchun oqilona daromadga ega ishonchli xalqaro institut tomonidan global zaxiraning bir qismini markazlashtirilgan holda boshqarish chayqovchilikni oldini olish va moliyaviy bozorlarni barqarorlashtirishda samaraliroq bo'ladi. Ishtirokchi davlatlar, shuningdek, ichki rivojlanish va iqtisodiy o'sish uchun ma'lum zaxiralarni tejashlari mumkin. Umumjahon a'zoliigi, pul-kredit va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha o'ziga xos mandati hamda o'z a'zo-mamlakatlarining makroiqtisodiy siyosati bo'yicha xalqaro "nazoratchi" sifatida o'z tajribasi bilan jihozlangan XVF boshqaruvchi sifatida faoliyat yuritishning tabiiy ustunligiga ega.

¹¹⁷ www.imf.org. sayti ma'lumotlari.

Jamg'arma tomonidan unga a'zo mamlakatlar zaxiralarini markazlashtirilgan holda boshqarish SDRning zaxira valyutasi sifatidagi rolini oshirish uchun samarali chora bo'ladi. Bunga erishish uchun XVF bozor amaliyotiga asoslanib, turli investorlar tomonidan mavjud zahira valyutalariga obuna bo'lish va sotib olish imkonini beruvchi ochiq SDR nominalli fondni tashkil qilishi mumkin. Ushbu kelishuv nafaqat SDR bilan ifodalangan aktivlarning rivojlanishiga yordam beradi, balki mavjud zaxira valyutalari ko'rinishidagi likvidlikni qisman boshqarish imkonini beradi. U hatto mavjud zahira valyutalarini asta-sekin SDR bilan almashtirish uchun SDR taqsimotini oshirish uchun asos yaratishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные отношения. – М.:КНОРУС, 2016. – 440 с.
2. Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. 7-е изд. Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2013. – 880 с.
3. Пищик В.Я. Евро и доллар США: конкуренция и партнерство в условиях глобализации. – М.: Консалтбанкир, 2002. – 301 с.
4. Фридмен М. Если бы деньги заговорили... Пер. с англ. – М.: Дело, 1999. – 160 с.
5. Миллер Л.Р., Ван-Хуз Д.Д. Современные деньги и банковское дело. Пер. с англ. – М.: Инфра- М, 2000.- 856 с
6. Кейнс Дж. М. Трактат о денежной реформе. М.: Дело, 1993. – С. 162
7. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. – М.: Гелиос АРВ, 1999. - 352 с
8. www.imf.org